

TURKIY TILLI MAMLAKATLARNING INVESTITSION HOLATI VA SALOHIYATI HAMDA UNI OSHIRISHDA BOSHQARUVNING O'RNI

O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich

BMA tayanch doktoranti, XNU katta o'qituvchisi

O'razaliyev Nilufar Tangriberdi qizi

Bank-moliya akademiyasi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17523659>

Annotatsiya: Maqolada Turkiy tilli mamlakatlarning (Turkiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Ozarbayjon, Qirg'iziston va Turkmaniston) investitsion muhitining hozirgi holati, sarmoya salohiyati va uni rivojlantirishda menejment hamda boshqaruv tizimining o'rni tahlil etilgan. Shuningdek, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy integratsiya jarayonlarining investitsion jozibadorlikka ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda jahon amaliyoti asosida samarali boshqaruv yondashuvlarini tatbiq etish orqali investitsion muhitni yanada yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Abstract. The article analyzes the current state of the investment climate of the Turkic-speaking countries (Turkey, Uzbekistan, Kazakhstan, Azerbaijan, Kyrgyzstan and Turkmenistan), their investment potential and the role of management and governance systems in its development. The impact of the economic integration processes underway within the framework of the Organization of Turkic States on investment attractiveness is also studied. The study develops recommendations for further improving the investment climate through the implementation of effective management approaches based on world practice.

Аннотация. В статье анализируется современное состояние инвестиционного климата тюркоязычных стран (Турции, Узбекистана, Казахстана, Азербайджана, Кыргызстана и Туркменистана), их инвестиционный потенциал и роль систем управления в его развитии. Также изучается влияние процессов экономической интеграции, происходящих в рамках Организации тюркских государств, на инвестиционную привлекательность. Разработаны рекомендации по дальнейшему улучшению инвестиционного климата путем внедрения эффективных подходов управления, основанных на мировой практике.

Kalit so'zlar: investitsion salohiyat, investitsion muhit, menejment, boshqaruv, Turkiy davlatlar tashkiloti, iqtisodiy integratsiya, jozibadorlik, korporativ boshqaruv.

Keywords: investment potential, investment climate, management, governance, Organization of Turkic States, economic integration, attractiveness, corporate governance.

Ключевые слова: инвестиционный потенциал, инвестиционный климат, управление, государственное управление, Организация тюркоязычных государств, экономическая интеграция, привлекательность, корпоративное управление.

XXI asrda xalqaro investitsiyalar global iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, Turkiy tilli mamlakatlar o'zining tabiiy resurslari, geografik joylashuvi, yosh mehnat bozori va o'sib borayotgan bozor imkoniyatlari bilan jahon investorlari e'tiborini tortmoqda.

Biroq bu davlatlarning investitsion salohiyati bir xil emas — ayrim mamlakatlarda boshqaruv tizimining samaradorligi yuqori bo'lsa, boshqalarda institutsional to'siqlar mavjud. Shu bois, boshqaruvning sifatli tashkil etilishi investitsion muhitni shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida ko'rilmogda.

Turkiy tilli mamlakatlarning investitsion holatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Turkiy tilli mamlakatlar umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlari jihatidan Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasida yetakchi o'rinda turadi. Quyidagi jihatlar ularning investitsion holatini belgilaydi:

- Turkiya — Yevropa va Osiyo o'rtasidagi strategik ko'pri bo'lib, sanoat, transport-logistika, turizm va xizmatlar sohalarida yetakchi investitsion markaz hisoblanadi. 2024-yilda mamlakatga jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 14 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi¹.
- Qozog'iston — mintaqadagi eng yirik iqtisodiyotlardan biri bo'lib, neft-gaz, metallurgiya va energetika sohalarida faol sarmoya kiritilmoqda. Jahon bankining 2024-yilgi "Doing Business" reytingida 25-o'rinni egallagan².
- Ozarbayjon — neft va gaz sanoati asosiy investitsion drayver bo'lsa-da, so'nggi yillarda IT, logistika va turizm sohalariga sarmoya oqimi ortmoqda³.
- O'zbekiston — 2017-yildan boshlab iqtisodiy islohotlar natijasida investitsion muhit ancha yaxshilandi, 2024-yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 11 mlrd AQSh dollariga yetdi⁴.
- Qirg'iziston va Turkmaniston — tabiiy resurslarga boy, biroq menejment tizimi va institutsional ishonch pastligi sababli investitsion faollik nisbatan past⁵.

Endi mazkur mamlakatlarning investitsion salohiyat va integratsiya imkoniyatlariga to'liqroq to'xtalib o'tamiz.

Turkiy tilli mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, xususan Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) doirasidagi hamkorlik, sarmoyaviy salohiyatni birlashtirish imkonini bermoqda. Quyidagi yo'nalishlarda katta imkoniyatlar mavjud:

- ✓ Transport-logistika integratsiyasi ("Turan yo'lagi", Transkaspiy koridori);
- ✓ Energetika loyihalari (neft-gaz tarmoqlari, yashil energiya);
- ✓ Sanoat va qishloq xo'jaligi klasterlarini shakllantirish;
- ✓ Raqamli iqtisodiyot va texnoparklar orqali innovatsion investitsiyalarni rivojlantirish.

Ammo bu salohiyatdan to'liq foydalanish uchun hududiy va davlat darajasida samarali menejment tizimi zarur.

Demak, boshqaruvning investitsion jozibadorlikni oshirishdagi o'rni muhim. Ya'ni, menejment va boshqaruv tizimi investitsion muhitni belgilovchi asosiy omil sifatida quyidagi yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi:

- 1) Strategik boshqaruv – sarmoyaviy siyosatning uzoq muddatli ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;
- 2) Korporativ boshqaruv – sarmoyadorlar huquqlarini himoya qiladi, ishonchni oshiradi;
- 3) Shaffoflik va hisobdorlik tizimi – investor uchun xavflarni kamaytiradi;

¹ <https://www.invest.gov.tr/en/news/news-from-turkey/pages/turkiyes-fdi-inflows-reach-usd-11.3-billion-in-2024-defying-global-downturn.aspx>

² Kazakhstan is one of the largest economies in the region, with active investments in the oil and gas, metallurgy, and energy sectors. It ranked 25th in the World Bank's 2024 Doing Business ranking.

³ <https://www.state.gov/reports/2020-investment-climate-statements/azerbaijan>

⁴ <https://www.state.gov/reports/2024-investment-climate-statements/uzbekistan>

⁵ https://www.researchgate.net/publication/384690827_The_Resource_Curse_Why_Some_Resource-Rich_Countries_Remain_Poor#:~:text=The%20E2%80%9Cnatural%20resource%20curse%E2%80%9D%20refers,with%20lesser%20natural%20resource%20endowments.

4) Inson kapitalini boshqarish – malakali kadrlar orqali investitsion loyihalarni samarali amalga oshirish imkonini beradi;

5) Institutsional muvofiqlik – byurokratik to‘siqlarni qisqartiradi, raqamli boshqaruvni joriy etadi⁶.

Masalan, Turkiyada 2000-yillardan boshlab “Investment Office of Turkey” yagona markaz sifatida investorlar bilan ishlaydi. Qozog‘istonda “Kazakh Invest” milliy agentligi investitsiya boshqaruvining markazlashgan modelini joriy etgan. O‘zbekistonda esa “Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi” tizimi orqali investitsion loyihalar bir markazda muvofiqlashtirilmoqda.

Turkiy tilli mamlakatlar uchun umumiy boshqaruv tamoyillarini yaratish ular mushtarakligini ta’minlashda, integratsiyasini tezlashtirishda yana bir hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Jahon tajribasi asosida quyidagi boshqaruv tamoyillari Turkiy davlatlar uchun investitsion jozibadorlikni oshiruvchi asosiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qilishi mumkin:

- a) “Bir darcha” tamoyili asosida investitsiya ruxsatnomalarini raqamli tartibda ko‘rib chiqish;
- b) Hududiy investitsion agentliklar faoliyatini kuchaytirish;
- c) Sarmoyadorlar bilan muntazam teskari aloqa tizimini joriy etish;
- d) Korporativ boshqaruv kodekslarini yagona mintaqaviy standart sifatida ishlab chiqish;
- e) Turkiy Investitsiya Jamg‘armasini tashkil etish orqali qo‘shma loyihalarni moliyalashtirish.

Bu yondashuvlar TDT doirasida umumiy investitsion makonni shakllantirish imkonini beradi.

Turkiy davlatlar tashkilotining a‘zosi sifatida O‘zbekiston uchun ayrim xulosalar va amaliy takliflarni taqdim etishni joiz topdik. O‘zbekiston uchun Turkiy mamlakatlar bilan hamkorlikda quyidagi yo‘nalishlar strategik ahamiyatga ega:

1. Menejment tizimini xalqaro tajribalar asosida modernizatsiya qilish;
2. Turkiya va Qozog‘iston bilan qo‘shma investitsion fondlar tashkil etish;
3. Hududiy investitsion reytinglarni joriy etish;
4. Raqamli boshqaruv platformalari orqali sarmoya jarayonlarini soddalashtirish;
5. Kadrlar tayyorlashda TDT mamlakatlarining tajriba almashinuvi dasturlarini kengaytirish.

Ushbu chora-tadbirlar O‘zbekistonning xalqaro investitsion hamkorlikdagi mavqeini mustahkamlaydi hamda Turkiy davlatlar bilan iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtiradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, turkiy tilli mamlakatlar katta tabiiy, iqtisodiy va inson salohiyatiga ega bo‘lsa-da, bu salohiyatdan to‘liq foydalanish samarali boshqaruv tizimini joriy etishga bog‘liq. Boshqaruv omillarining to‘g‘ri tashkil etilishi sarmoyadorlar ishonchini oshiradi, iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi va mintaqada barqaror rivojlanishni ta’minlaydi. Shu bois, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida yagona investitsion boshqaruv tamoyillarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

⁶https://www.researchgate.net/publication/4894730_The_Impact_of_Corporate_Governance_on_Investment_Returns_in_Developed_and_Developing_Countries

1. O'zR Prezidentining "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-5635-son qaror.
2. Qurbonov J. Korporativ tuzilmalar investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi omillar. April 2025, DOI:10.5281/zenodo.15194593
3. Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. Harvard Business Review, 1990.
4. Cho, D. S., & Yoon, J. The Development of Korean Management Practices. Asian Business & Management Journal, 2018.
5. Ulrich, D., & Brockbank, W. The HR Value Proposition. Harvard Business Press, 2005.
6. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hisobotlari, 2023–2024.
7. "Turkiy investitsiya jamg'armasi to'g'risida bitim", 2023-yil, Boku.
8. OECD. Investment Policy Reviews: Turkey, Kazakhstan, Uzbekistan. Paris, 2022.
9. World Bank. Doing Business Reports (2015–2023).
10. IMF. World Economic Outlook. Washington D.C., 2022.